


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THEORETICAL BASIS OF GENDER RELATIONS IN ENGLISH AND UZBEK PHRASES***Diyora Ikboliddin kizi Korakuzieva**Lecturer**Andijan state institute of foreign languages**Andijan, Uzbekistan**E-mail: diyoraotajonova17@gmail.com***ABOUT ARTICLE**

Key words: gender, gender linguistics, speech, method of communication, phraseological unit.

Received: 17.09.23

Accepted: 19.09.23

Published: 21.09.23

Abstract: This article discusses the identification of the main features of phraseological units, which are of great importance in the process of communication, and their content are considered from a genderological point of view. Also, it studies the formation of gender linguistics and research objects in modern linguistics.

INGLIZ VA O'ZBEK FRAZEMALARIDA GENDER MUNOSABATLARINING NAZARIY ASOSLARI*Diyora Iqboliddin qizi Qoraqo'ziyeva**O'qituvchi**Andijon davlat chet tillar institute**Andijon, O'zbekistaon**E-mail: diyoraotajonova17@gmail.com***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: gender, gender tilshunosligi, nutq, muloqot usuli, frazeologik birlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muloqot jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning mazmuniy mundarijasini genderologik nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy lingvistikada gender tilshunosligining shakllanishi hamda tadqiqot obektlari xususida fikr yuritilgan.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ФРАЗАХ*Диёра Икболиддин кизи Коракузиева**Преподаватель**Андижанского государственного института иностранных языков*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: род, гендерная лингвистика, речь, способ общения, фразеологизм.

Аннотация: В данной статье выявление основных признаков фразеологизмов, имеющих большое значение в процессе общения, и их содержание рассматриваются с родословной точки зрения. Также рассматриваются становление гендерной лингвистики и объекты исследования в современной лингвистике.

KIRISH

Til o'rganish insonning ichki dunyosini ham amaliy, ham nazariy jihatdan boyitib boradi. Bu jihatdan tilshunoslikda frazeologiya bo'limini hamda uning asosiy tushunchasi bo'lmish frazeologik birliklarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklar mazmunli tarkibida madaniy, kognitiv, diniy va tarixiy bilimlarning salmoqli zaxirasini aks ettiradi va bu til o'rganishda juda muhim aspekt hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Frazeologik birliklarning gender tadqiqi ham dolzarb masalalardan sanaladi, chunki uning diqqat markazida erkak va ayolga ijtimoiy munosabatni belgilovchi madaniy-ijtimoiy omillar hamda ma'lum bir jinsga mansubligi sababli tilshunoslik vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari borligidadir. Gender konseptualizatsiyasi, uning qatlamlari va tarkibiy qismlarini tavsiflash, milliy-madaniy, etimologik va tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan holda asosiy gender tushunchalarini tashkil etuvchi omillar va parametrlarni aniqlash jarayonini chuqur o'rganish ham muhim hisoblanadi. Frazeologik birliklarning gender tadqiqi ustida izlanish olib borar ekanmiz, albatta, gender tilshunosligining nazariy asoslari xususida ham to'xtalib o'tishimiz zarur deb hisoblaymiz.

Gender tilshunoslik yo'nalishi – ayol va erkak nutqidagi o'ziga xosliklarni, har bir jins vakili nutqidagi xususiyatlarni xushmuomalalik pozitsiyasi bilan o'rganishni taqozo etadi va erkak va ayol nutqidagi farqlar va o'xshashliklar bu yo'nalishning o'rganish obyekti hisoblanadi. Bu soha ko'plab tilshunoslarning izlanishlari markazida turadi. Bularga E.A. Zemskaya, A.P. Martinyuk, R. Lakof, Dj. Koats kabi olimlarning ishlarini misol qilishimiz mumkin [1].

Hozirgi zamon tilshunoslik paradigmasiga yana bir yangi konseptlardan biri bo'lgan gender tushunchasi XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. Keyinchalik esa tilshunoslikning genderologiya yo'nalishi asosida bir necha ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini ko'rsata boshladi. Birinchi navbatda amerikalik psixoanalitik Stoller genderni konsept sifatida tadqiq etdi. Olim gender konseptini ikkiga ajratib, ya'ni biologik (jins) va sotsiologik (gender) turlarga bo'lishni taklif qildi [2]. Bizga ma'lumki, biologiya va fiziologiya fanlari jins xususiyatlarini, psixologiya va sotsiologiya esa

gender xususiyatlarini o'rganadigan ta'limotdir. Tadqiqotchi Stollerning talqini va taklifi zamonaviy gumanitar bilimlar orasida gender tilshunosligi deb nomlangan alohida yo'nalishning shakllanishiga saba bo'ldi. Jahon tilshunosligida hozirgi kunda gender mavzusi ustida salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan va hali hanuz tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotchi G.A.Brandt fikricha: "Gender – madaniyat ta'siri ostida bo'ladigan, ma'naviy jihatdan ayol va erkaklarning nutqiy, hulq-atvoriy tomonlarini baholay oladigan xususiyatlar majmuidir" - deb qaraydi [3].

Shuningdek, tadqiqotchi N.L.Pushkaryova ushbu atamani shunday talqin etadi: "Gender – jamiyatning hukmronlik o'tkazadigan va bo'ysunduradigan xususiyatlardan iborat bo'lgan munosabatlar va o'zaro harakatlar tizimidir [4]. Gender tilshunosligi nafaqat ijtimoiy guruhlar orasidagi munosabataini tadqiq etish bilan birga ana shu ijtimoiy guruh a'zolarining dunyo madaniyatlarida hulq-atvorlarini ham tadqiq etadi. Bu esa o'z o'rnida jamiyat talab etgan ma'lum ijtimoiy qonuniyatlarga ayollar va erkaklarning rioya qilishlarini bildiradi.

Olim Ye.I.Goroshko gender tilshunosligi xususida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Gender xususiyatlar nutq, hulq-atvor, ayol va erkaklarning jamiyat modellarini qabul qilishda o'z aksini ko'rsatadi" [5].

Boshqa bir ko'zga ko'ringan olimlardan biri O.A.Voronina Goroshkoning fikrini boshqa so'zlar bilan ifodalab, quyidagi ta'rifni qo'shib qo'yadi: "Gender tadqiqotlarining asosiy uslubiyati ayol va erkaklarning jamiyatdagi genderlik roli va munosabatlari orqali tasdiqlangan hukmronlik va ustunlik tahlili hamdir [6].

Shuningdek, tadqiqotchi J.Lakoffning ta'kidlashicha, muomala jarayonida ayollar yuqori darajadagi empatiya va o'z suhbatdoshiga nisbatan moslashib ketish kabi xislatlar bilan farqlanadi, o'z suhbatdoshining mulohazalarini diqqat bilan tinglab, muloqot jarayonida ustun bo'lishga harakat qilmaydi. Erkaklar esa suhbat chog'ida yana ham jizzakiroq, sharoitni nazorat qilishga intiladilar, o'zaro kelishishga harakat qilishadi, deb biladi. U shuni ham ta'kidlaydiki, ingliz tilida qayd etilgan xususiyatlarga qo'shimcha qilgan holda, ayollar tasdiq so'roq gapga tushuvchi intonasiya qo'llash o'rniga ko'tariluvchi intonasiyadan, semantik jihatdan chuqur ma'noga ega bo'lmagan leksika, odatiy ayollar faoliyatini tasvirlaydigan maxsus o'zlashtirma so'zlardan, so'zlayotgan nutqni kuchli his-hayajon ma'nolarni ifodalovchi til vositalari va modal yuklamalardan keng foydalanishadi. Erkaklar esa undov so'zlar qo'llamasliklari, stilistik bo'yoq darajasi kam va haqorat ma'nosi kelib chiqadigan jargonli leksikani juda ko'p ishlatishlarini ham qo'shib qo'yadi [7].

Tadqiqotimiz bevosita qiyosiy lingvistika bilan bog'langanligi sababli ushbu izlanishimizda qiyosiy va tarjima metodlardan foydalangan holda tadqiqot ishimizni amalga oshirdik. Bilamizki, muloqot uslubidagi farqlar ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlarda paydo bo'ladigan

muammolarni aniqlashtirmaydi. Ya'ni, munosabatlarda ruhiy muammolar, ya'ni sevgidagi yoki e'tibordagi omadsizlik, chin dillik, xudbinliklar ba'zan aks etadi hamda ular siyosiy va iqtisodiy tengsizliklarning natijasidir. Ammo aytib o'tilgan xususiyatlar asossiz ifodalanishi ham tez-tez uchrab turadi. Demak, ayol va erkak borliqni turlicha qabul qiladi va baholaydi. Nutqiy muomalaning gender o'zgaruvchanligi tilning turli sathlarida, ya'ni fonetik, leksik, grammatik, semantik sathlarda namoyon bo'ladi. Gender munosabatlar faqatgina kodlangan ko'rinishda ishlatilmay, balki nutq hodisasining mavzular majmui va xususiyatini yuzaga keltiradi.

Yuqorida dunyo tilshunosligida gender tilshunosligining paydo bo'lishi, tarixiy bosqichlari hamda gender atamasi ustida olib borilgan tadqiqotlar xususida fikr yuritib o'tdik. Ma'lum bo'lganidek, erkak va ayol nutqi tadqiqi har doim o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Biz ham ushbu tadqiqot ishimiz orqali erkak va ayol munosabatlarida frazemalarning o'zni hamda ularning turli sathlarda namoyon bo'lishi xususida izlanish olib bormoqdamiz.

Ma'lumki, ingliz va o'zbek frazeologik dunyoqarashidagi stereotiplar, gender assimetriyalari va konnotatsiyalarining ta'siri va mushohada etilishi - bu gender belgilarining leksikografik tavsifi uchun zamin yaratadi.

Tahlil qilinayotgan tilning frazeologik birliklari va ularning adekvatligi

foydalanish kontekstlarida talqin qilish. Bularning barchasi frazeologiya materiallarida gender konstruksiyasini tavsiflashning dolzarbligini, gender tushunchalarining shakllanishini namoyish etishni, ingliz va o'zbek til madaniyatida erkaklik va ayollikning an'anaviy stereotiplarini bilan bog'liq bo'lgan genderologik ma'lumotlari bilan ta'minlaydi.

Erkak va ayol ongida go'zallik va xunuklik tushunchalari aniq chegaralarga ega: go'zallik unga ega bo'lishga harakat qiladigan ayollarning atributidir, erkaklar uchun bu xususiyat unchalik muhim emas. Buni ayollarning go'zal qiyofasini ifodalovchi bir qator frazeologik birliklar isbotlaydi:

(as) red as a cherry – to have rosy skin (gilos kabi qizil - pushti teriga ega bo'lmoq); have roses in one's cheeks – to have rosy cheeks (yonoqlari pushtirang bo'lmoq); a slick chick – an attractive girl (jozibali qiz).

“on the shelf” –eskirgan yoki qolib ketgan tovar ma'nosida kelib, turmush qurmagan, kech oila qurmoqchi bo'lgan ayol ma'nosida, “fishing fleet” (baliq ovi –flotiliya) turmush qurishyoshidagi qizlarning oila qurish maqsadida chet elga ketib qolishini ifodalashda, “wallflower”¹–tashqi ko'rinishi jozibador bo'lmagan yosh qizlarga nisbatan qo'llaniladi.

Ingliz tilidagi frazeologik birliklarning o'rganilayotgan majmuasida ko'pchilik, erkakni sodiq yordamchi, odobli, xushmuomala inson sifatida, uning ayolga nisbatan afzalliklari, jasorati, irodaliligi, yuksak intellekti kabi sifatleri e'tirof etiladi. Quyidagi frazeologik birliklarni bunga misol sifatida berishimiz mumkin bo'ladi.

square John – honest man; knight without Fear and without Reproach – fearless, brave man; a gentleman of fortune – lucky men; clever dog – a smart boy. In English culture man's main activity deals with public outside sphere, which belongs to him: lord and master; men in grey suits, a made man – a person who reached high position himself. There is a universal stereotype that money and power in society also belong to men: a man of mark – man of high position; a man of business – businessman; great lion – powerful (about a man); a man about town – noble man; the king of the castle – leader, chef.

Bundan tashqari, o'zbek tilida erkak va ayollarga nisbatan quyidagi frazeologik birliklarni muloqotda uchratishimiz mumkin: oppoq qiz -(so'zlashuv tilida erkalash.) shirin qiz (qizga odobli murojaat), podachining oshi -cho'pon ovqati, turli mahsulotlardan qo'shma ovqat, tirik beva – somon beva, cub pilot–yangi uchuvchi, fine gentleman–dunyoviy moda odami, olifta, principal girl–yetakchi aktrisa, knightof fortune–oson pulga o'ch ritsar, sarguzashttalab, the old lady–ona, kampir, liberty man-ta'tildagi yoki ishdan bo'shatilgan dengizchi, onasuti og'ziga keldi-holdan toygan, charchagan, toliqqan, oppoq dada –bobo, buva, otangga balli -(ma'qullash) oh, barakalla, yasha, yaxshi!, qiz uzatmoq (yoki chikarmoq) –qizni turmushga bermoq [8].

In English culture a wife, who tries to get power in family is negatively marked: the gray mare – a woman holding husband under her heel; wear the breeches – to have power in the house. A man, who gives power to his wife is also negatively marked as he doesn't fulfill his typical behavioral norms: to be under one's heel – to be under wife's power; knight of the forked order – betrayed, altered husband.

Ingliz frazeologiyasida ayol zaif jins sifatida ifodalanadi, u jamiyatda mavjud bo'lgan xotin, qiz do'sti, onaning stereotipik vazifalarini bajaradi va tegishli gender fazilatlariga ega: one's good lady – - xotin; Sister Ann - sodiq do'st; the softer sex – zaifa, ojiza. Ayollar faoliyati sohasi asosan ichki makon, ya'ni uy va oila bilan bog'liq. Biroq, zamonaviy ingliz til madaniyatida ayollarning manfaatlari faqat ichki makon bilan bog'liq bo'libgina qolmay, tashqi makonda ham faoliyat olib boradi, ya'ni kasbiy faoliyatga ham tegishli bo'ladi. Masalan ofislarda: a hello girl - qiz-operator; a woman of letters - yozuvchi ayol; a girl Friday - ishonchli kotib qiz.

Ingliz madaniyatida oilada hokimiyatga ega bo'lishga harakat qiladigan ayol salbiy ta'riflangan:

the gray mare - erini tovon ostida ko'radigan ayol; wear the breeches – o'z uyida hukmron bo'lish. Oilada rafiqasiga hukmronlik qilish mas'uliyatini berib qo'ygan erkak o'zining odatiy xatti-harakatlari me'yorlarini bajarmagani uchun ham salbiy ta'sir ko'rsatadi: to be under one's heel – ayolining chizgan chizig'idan chiqmaslik; knight of the forked order - xiyonat qilgan, o'zgartirilgan er.

Shunday qilib, stereotiplarni tushunishning kaliti bu albatta tildir, ya'ni ular til funktsiyasida mavjud bo'ladi. Til - ma'lum bir etnik guruhning madaniyati, urf-odatlari, ijtimoiy ongini avlodlardan-avlodga saqlash va yetkazish uchun mas'uldir.

Ingliz va o'zbek tillarida majoziy ma'noni o'z ichiga olgan lingvistik materiallarda «erkak» va «ayol» konseptining tavsifi turli xil nuqtai nazarlarda tasniflanadi:

a) yosh gradatsiyasi; b) ijtimoiy mavqei; v) xulq-atvor faoliyati.

Tahlilning asosiy protseduralaridan biri bu konseptni uning qismlariga protsedent ideografik parametrlashtirish, erkak va ayolning barcha xususiyatlarini aks ettiradi: tabiiy jismoniy, fiziologik, psixologik va intellektual (yoshi, tashqi ko'rinishi, ma'lum bir jinsga mansubligi sababli harakterning jinsiy xususiyatlari, intellektual qobiliyatlar va boshqalar), ijtimoiy-maqom, rol va boshqalar. Gender dunyoqarashida erkak qiyofasini jasorat, martaba, qulay hayot, ayollarni afzal ko'rish, ota bo'lish, teng turmush o'rtog'i bo'lish kabi tushunchalar shakllantiradi. Ayol qiyofasi ayollarning ijtimoiy-biologik funksiyalari, jinsiy jozibali ko'rinishi, yoshi, sevgisi, turmush qurganligi, ideal xotin, onalik, uy bekasi, yaqin do'st, mustaqil ayol, teng huquqli sherikdir kabi tushunchalarni aks ettiradi.

Odatda, frazeologik ma'nodagi gender komponenti – ifoda jihatida va idioma mazmuni jihatida aniq bo'ladi (man of the moment – nufuzli odam, muhim shaxs) va bilvosita, ya'ni mazmun jihatida mavjud bo'lishi mumkin, lekin ifoda jihatida mavjud bo'lmaydi: bit of fluff (or skirt – jozibali ayol, hot stuff – temperamentli (ayol haqida). A A.V. Kunin ta'kidlaganidek, noaniqlik til vositalaridan ularning faoliyat yuritishida iqtisodiy foydalanishning muhim vositasidir [9].

Frazeologik birliklardagi gender komponentini ifodalashda otlar, olmoshlar va kishi nomlari erkaklik yoki ayollikning aniq xususiyatiga ishora qiluvchi belgilar sifatida qaraladi: man, boy, girl, woman, lady, he, she, Jack, Tom, Mary (erkak, yigit, qiz, ayol, xonim, u (erkak), u (ayol), Jek, Tom, Meri) va boshqalar. Frazeologik birlik semantikasida nazarda tutilgan obraz yaratish oson, chunki komponentning o'zi jinsga tegishlilikni ko'rsatadi: a man for all seasons – yordamga tayyor odam; a girl Friday – reliable clerk (about girl-secretary) - ishonchli xizmatchi (qiz-kotiba haqida); brother in arms - armiyadagi birodarlar.

Frazeologik birliklarning salmoqli qismini aniq ifoda xususiyatiga ega birliklar hisoblanadi. Tarkibida gender komponenti "pardalangan" frazeologik birliklar guruhi esa son jihatdan kamdir: skirt chaser - ayollarni "quvib yuruvchi" erkak. Bu iborada ikkita bilvosita ifodalangan komponent - yubka, ya'ni ayol va quvuvchi, ya'ni erkak o'zaro ta'sir etadi. Frazeologik birliklarda yoshni aniq ifodalamaslik, ya'ni berkitilgan holda ko'rsatish ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin: a dolly bird - yosh sodda qiz; old trout - kampir; a bit of fluff - juda yosh qiz. Aniq ifodalangan frazeologik birliklar orasida erkaklar va ayollarning kasbiy faoliyatini

ko'rsatuvchi komponentlarga ega bo'lganlari eng mashhuri: a boy in buttons – mehmonxonada ishlayotgan bola; a Jack of all trades - turli kasb egalari; a confidence man - firibgar, insofsiz; a hello girl – operator qiz; a woman of letters - yozuvchi ayol.

Yuqorida tahlil etganimizdek, ingliz va o'zbek tillarida gender bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar tilda mavjud bo'lib, yillar mobaynida sayqallanib saqlab kelinmoqda. Ushbu tadqiqot ishimizda ana shunday frazemalarning bir nechtasini tahlil qildik, keying izlanishlarimizda ham qiyoslanayotgan tillarda mavjud bo'lgan jins frazeologik birliklarining mazmuniy mundarijalarini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, gender frazemalarini o'rganish orqali nafaqat zamonaviy tilshunoslikda frazeologiya sohasiga o'z xissamizni qo'shgan bo'lamiz, balki butun bir xalqning, millatning mulki sanalmish frazeologik birliklarni lingvokulturologik aspektda o'rganish orqali ingliz va o'zbek madaniyatida unutilgan iboralarni til fondiga olib kiramiz.

XULOSA

Shunday qilib, jinsga ega bo'lgan frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirish ularning tarkibidagi tarkibiy qismlardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkin ular til tizimining barcha darajalarida namoyon bo'ladigan representativlik; jins lisoniy voqelikni, tilning milliy madaniyatini aks ettiradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djalilova Z.O. (2021). Studies on gender linguistics in the field of Uzbek language. Academic research in educational sciences,2(3), 391-397.
2. Brandt G.A. Priroda jenshini kak problema: Konsepsiya feminizma. // «Obshestvennie nauki i sovremennost'», 1998, No 2.
3. Voronina O.A. Sosiokul'turnie determinanti razvitiya gendernoy teorii v Rossii i na Zapade. // «Obshestvennie nauki», 2000, No4. -S. 12-14.
4. Pushkaryova. N.L. Chto takoe gender? // Gendernaya teoriya i poznanie: materialy nauchno prakticheskoy konferensii. Siktivkar. 2005.
5. Pushkaryova. N.L. Chto takoe gender? // Gendernaya teoriya i poznanie: materialy nauchno prakticheskoy konferensii. Siktivkar. 2005.
6. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. –T.: «O'qituvchi», 1959.
7. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. –T.: «Sharq», 1996.
8. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. –Toshkent: Fan, 2010. –256 b.
9. Kunin A.V. The course of modern English phraseology, Moscow: High school, 1996.
10. Guzal, R., & Zaynab, A. (2021). The role of Avesta in the formation of a healthy lifestyle in the Khorezm oasis. EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO), 8(1), 8-10.